

IMOM AL-BUXORIY HAYOTI VA ISLOM OLAMIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: M.Abdullayeva

Tayyorlovchi: Raxmonberdiyeva Dilnura Shuxratali qizi

*Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti, filiologiya va tillarni o'qitish fakulteti
talabasi*

Telefon raqam: +998 97 984 02 82

Electron pochta manzil: dilnurrahimberdiyeva2006@gmail.com

Annotsiya: *Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim al Buxoriy) xaqida tahlil qilingan bo'lib, islom olamiga qilgan xizmatlari, ilmiy-ma'naviy, axloqiy va ta'limga qilgan xizmatlari xaqida batafsil yoritib beramiz. Bundan tashqari, olimning bugungi islom olamida, islom dunyosida tutgan o'rni va uning nomi haligacha musulmon va musulmon bo'lmagan xalqlar orasida qadrlanishi va alohida hurmatda bo'lishining sabablari o'rganiladi va chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar : *xayoti, taffakuri, ta'lim ,xalq, islom, ma'rifat, murshid, komil inson, yetuk alloma, chuqur ilm sohibi, mutaffakir, muhaddis, fuzalo, milodiy, xijriy, sahih, nosahih.*

Kirish

Imom al-Buxoriy – Islom olamining eng salmoqli va hurmatli olim va fuzalolaridan bo'lgan va bugungi kunda ham uning qilgan xizmatlari va ilmiy hamda islomiy asarlari qadrlanmoqda. Hatto, dunyoning eng nufuzli oliygohlarida ham olimning asarlari darslik sifatida o'qilmoqda. Yurtdosh olimimizning to'liq ismlari – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim Al-Buxoriy bo'lgan. Olim milodiy 810-yilda, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida tavallud topganlar va o'zining 60 yillik umr yo'li davomida bu ummatga manfaatli bo'gan bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Shuning uchun ham olim bugungi kungacha “Muhaddislar imomi”, “Hadis ilmining sultoni” deya e'zozlanmoqda

Asosiy qism

Imom Al-Buxoriy o'sha paytlarda ham Markaziy Osiyoning eng mashhur va gavjum shahri bo'gan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida Ismoil ota honadonida tavallud topganlar. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, ya'ni hadis to'plab, uni o'rganib, kitobga tushiruvchi, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (S.A.V)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Dohiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Shu ma'lumotdan xulosa qilsak bo'ladiki, ilmi-tolib ilm yo'lida yuribdimi, albatta o'z mamlakatining olimlaridan saboq olishi va keyin boshqa

mamlakat olimlaridan ilm olishga o'tlanishi lozim. Bugungi kunda ko'p yosh tengdoshlarimiz chet elga ta'lim olish uchun ketishmoqda, lekin ularning qanchasi o'z mamalakatining olim va profesorlaridan zarur bilimlarni olib, qo'shimcha bilimga ehtiyoj tug'ilganidan chet elga ketishmoqda?! Aytmoqchimanki, bugungi kunda chet eldan ta'lim olish juda zarur, lekin birinchi navbatda ushbu ilm yo'lidagi inson, o'zining yurtida, o'zining o'qituvchilaridan ilm olishi kerak. Bu, kelajakda chet elga borganida noto'g'ri yo'lga kirib ketishning oldini oladi, shuningdek u yerga yaxshi bilimlar bilan borganligi chet el talabalari orasida ham yurtimizga bo'lgan qiziqish va hurmatni oshiradi.

Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib,

yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi⁷¹. Milodiy 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi va Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar⁷². Shunday sharoitda Muhammad (S.A.V)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi va keyin Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaxarlardagi olimlardan saboq oladi va hadislar to'pladi. Ushbu ilm to'plash davomida olim ko'plab asarlar yozdi. Ko'plab hadislarini roviylari bilan birgalikda jamladi va ularning barchasini sahih va nosahihga ajratib berdi. Sahih hadislar ishonchli hisoblanadi va bugungi kunda ko'plab musulmo diyorida hadislariga amal qilishmoqda. Hadis bu – Payg'ambar Muhammad (S.A.V)dan qolgan va bajarilishi ruxsat berilgan yoki bajarishdan qaytarilmagan amallar hisoblanadi.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani – “Al-jome as-Sahih”dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: “Al-jome as-sahih”, “At-tarix as-sag'ir”, “AT-tarix al-avsat”, “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix al-kabir”, “At-tafsir al-kabir” “Birrul volidayn”, “Asmo as-sahoba”, “Kunyalar” va boshqalar. Ular orasidagi “Al-jome as-sahih” asari islom olamida Qur'ondan keyingi eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi. Aynan shu asarlar sababli ham Imom Al-Buxoriy bugungi kunda ham qadrlanmoqda va hatto uning avlodlari va yurtdoshlari sifatida O'zbekistonlik va hatto Markaziy Osiyolik insonlar ham musulmon diyorlarida hurmatga sazovor bo'lmoqdalar.

Aynan Imom al-Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning

⁷¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari

⁷² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi⁷³.

Olimning izlanishlari va to‘plagan bilimlar va asarlari bugungi kunda ham yurtimizda hurmatga sazovor va bu jarayon davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida“gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi. Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. Buxoriyning boy ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi. Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur‘oni karim va Buxoriyning “Al-Jome as-sahih” asarining tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an‘analimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg‘arma o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-adabiy “Imom al-Buxoriy saboqlari” jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma‘naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarining sog‘lom idrok etilishiga yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag‘ishlab bir necha tillarda kitob va albom, ikki qismli film (1995), “Hadis ilmining sultoni” to‘rt qismli kinoqissalar(1998) ishlab chiqilgan⁷⁴.

Xulosa

Bundan 5-10 asrlar oldin Markaziy Osiyo diyorida, jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva diyorlari ilm buloqlari sifatida butun dunyoda mashhur bo‘lgan va tolibi ilmlarni o‘ziga jalb etgan. Samarqand va Buxoro maktab, madrasalari ilm-fan uchun eng katta imkoniyatlar o‘chog‘i hisoblangan. Shuning uchun ham bu yurtlardan buyuk olimlar, matematiklar, astronomlar, faylasuf va hatto tabiblar chiqqan. Bunday olimlarning izlanishlari va yozib qoldirgan asarlari bugungi kunning rivojiga poydevor vazifasini bajarib bermoqda, shak-shubhasiz. Shunday olimlardan biri sifatida Imom Al-Buxoriyning katta va zalvorli hayot yo‘lini va islom olamidagi o‘rnini ushbu maqolamizda qisqacha yod etgan bo‘ldik. Oltmish yillik umri davomida olimimiz ilm olishdan, izlanishdan, va uni boshqa ilm talabidagi insonlarga yoyishdan to‘xtamaganlar. Shu sababli ham olim davrida va undan keyin ham bir necha asrlar davomida aynan Buxoriy tashkil etib ketgan hadis maktablari o‘z o‘rnini saqlab qoldi. Biz bugungi kun yoshlari mana shunday ajdodlarimizdan faxrlanishimiz, ularning merosini o‘rganishimiz va alabatta o‘zimizdan keying avlodga yetib borishini ta‘minlashni o‘z oldimizga burch sifatida qabul qilishimiz lozim bo‘ladi, albatta.

⁷³ Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;

⁷⁴ Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Internet manbaa: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari;
2. Internet manbaa :<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlarsarkardalar/imom-ismoil-al-buxoriy-810-870>;
3. Internet manbaa: <http://www.fikr-uz.narod.ru/b/4.html>;
4. Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;
5. Uvatov U. Imom al-Buxoriy. T. 1998;
6. Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni T. 1998.
7. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
8. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
9. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
10. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.